



“HASANXON” DOSTONIDAGI O‘Z VA O‘ZLASHGAN QATLAMGA KIRUVCHI ANTROPONIMLAR

Davlatnazarov Davlatnazar Ro‘zmatboy o‘g‘li
UrDU talabasi

Annotatsiya Ushbu maqolada “Hasanxon” dostonida qo‘llanilgan antroponimlarning lug‘aviy tarkibi, ya‘ni qaysi qatlamga mansubligi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: antroponim, lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimcha, variant, o‘z qatlam, o‘zlashma qatlam.

“Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlari yuzga yaqin xilma-xil mazmumdagi asarlarni o‘zida birlashtirgan ulkan silsila bo‘lib, bu turkum tarkibiga kiruvchi doston “Hasanxon” dostonidagi antroponimlarning lug‘aviy tarkibiga diqqat qilsak. “Hasanxon” – “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi dostonlardan biri bo‘lib, Go‘ro‘g‘lidan keyingi ikkinchi avlod hisoblangan, Hasanxon to‘g‘risida yaratilgan mustaqil asar. El-yurt mudofaasi, mamlakatlar o‘rtasida tinchlik-osoyishtalik o‘rnatish, mardlik va do‘stlik dostonning asosiy g‘oyasini tashkil etadi. Unda Hasanxonning Chambilga olib kelinishiga oid voqealar tasvirlangan. Doston ko‘pchilik baxshilar repertuaridan o‘rin olib, Po‘lkan shoir (1968-1976) va Zohir Qo‘chqor o‘g‘li (1967) dan yozib olingan variantlari nashr qilingan. Bu dostonlar o‘zbek, tojik, turkman, ozarbayjon, turk, qozoq, qoraqalpoq, arman, gruzin, kurd xalqlari epik ijodiyotida o‘ziga xos turkumlarni tashkil etadi, shuning uchun ham bu dostonda turli xil tillarga oid antroponimlar qo‘llangan. Bu dostonga o‘ziga xos estetik zavq bag‘ishlagan. Dostonda turli tillarga oid ismlarning qo‘llanilishi shuni anglatadiki, doston ko‘plab yillar ilgari paydo bo‘lgan va turli elatlar, xalqlar orasida bir-biriga o‘tib turli o‘zgarishlarga uchragan. Shu sababli ko‘pchilik tilga oid ismlar qo‘llangan va vaqtlab o‘tib hozirgi holatiga kelgan. Dostondagi antroponimlarni 2 turga ajratib tahlil qilamiz: o‘z qatlam va o‘zlashma qatlam. Shulardan birinchisi o‘z qatlam.

Dostonda qo‘llanilgan o‘z qatlamga kiruvchi antroponimlar.

Bu turga kiruvchi ismlar sof turkiy (o‘zbekcha) nomlar hisoblanadi. Masalan:

Eshit, so‘zim, turkman elin, sultoni,

Omonat olamda odamning joni,



Arzimni tinglagin, yo 'qdir yolg 'oni,

Hali kamdir davlatingdan, Go'ro'g'li. [1:92]

Go'ro'g'li - antroponimi o'zbek tilidan olingan bo'lib, aynan: "Go'rda tug'ilgan bola". Bu ism o'zbek xalq dostonlari qahramoni Go'ro'g'li nomiga nisbat berib qo'yiladi. Qadimiy turkiy tilda go'r // ko'r-botir, dovyurak pahlavon ma'nolarini bildirgan. [3:95]

Dostonda qo'llanilgan o'zlashma qatlamga kiruvchi antroponimlar.

- **Arab tilidan o'zlashgan antroponimlar.**

Shodmon bilan Asom avvallari shoxmon bilan chumchuq, musichalarni urib, keyinroq Chambilning sarhovuziga kelib qo'ngan g'urrak, so'nalarni urib, keyin miltiq olib, mergan bo'lib qolishgan edilar. [1:92]

Asom – arabcha nom bo'lib, **Asomuddin**ning qisqargan shakli va dinning tutqichi, tayanchi yoki dinning ko'magi, madadi degan ma'noni anglatadi. [Ismlar ma'nosi ilova]

Go'ro'g'libek boshqadan anjom-aslahalarini taqib G'irko'kka minib, Hasanxon o'g'lini mingashtirib, tog'ning Asqar qismidan o'tib, Turkman yurtiga yuzlanib kela berdi. [1:102]

Hasanxon – arabchadan o'zlashgan ism bo'lib, yaxshi, tuzuk; chiroyli, sohibjamol. Ba'zi manbalarda ezgulik, yaxshilik; fasohatli deb izohlanadi. Bu nom Ali ibn Tolibning Fotimadan tug'ilgan o'g'li – Hasan ibn Alining ismi bo'lgan. Hasan – Muhammad (s.a.v.) ning nabirasidir. Tarkibidagi **-xon** lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha hisoblanadi. [Ismlar ma'nosi ilova]

Xon – hukmdor, boshliq, podshoh. Ismlar tarkibida ulug' martabali, e'zozli, obro'li; ulg'ayib elga bosh bo'lsin ma'nolarini anglatadi. Ko'p hollarda ismga an'anaga ko'ra qo'shiladi va hurmat, e'zozlash, suyish kabi bir qancha ma'nolarni ham bildiradi. [5:14]

Men ketarman Isfihomga,



Parizodim, xo 'sh qol endi,

Tanlab olgan mehribonim,

Misqol jonim, xo 'sh qol endi. [1:93]

Misqol - ismi arabchadan olingan bo'lib, xushbichim, zebo yoki qimmatli, nodir, tengsiz kabi ma'nolarni bildiradi. [3:188]

- **Fors-tojik tilidan o'zlashgan antroponimlar.**

*Aslida bu to 'rt usta **Bobo Qalandar** barchasi, musulmon bo 'lib, qizilboshlilarni juda yomon ko 'rib yurar edi. [1:97]*

Qalandar – ismining kelib chiqishi fors-tojikcha bo'lib, darvesh, tarkidunyochi, darbadar kezuvchi singari ma'nolarga ega.

*Chambilda bir beva ayol bo 'lib, **Shodmon**, Asom degan ikkita juda tegajoq, bejog 'im bolalari bor edi. [1:92]*

Shodmon - ismi fors-tojik tilidan o'zlashgan bo'lib, xursand, mamnun, baxtiyor bola yoki umri doimo shodlikda o'tsin degan ma'nolarni anglatadi. [3:]

*Eshitgin, jon o 'g 'lon, aytgan so 'zimni,
Bir kecha mehmon bo 'p yegin tuzimni,
Ertaga pirimdan olsam fotiha,
Usta **Xoldor** deb atayman o 'zimni. [1:98]*

Xoldor - ismi fors-tojikcha nom bo'lib, badanida xol bilan tug'ilgan bola, xolli bola kabi ma'noga ega. [3:432]

”Hasanxon” dostonidagi ko'plab ismlarning qaysi tilga tegishli ekanlini va ma'nolarini ko'rib chiqdik. Ko'rganingizdek, turli tilga oid ismlar qo'llangan, bu esa dostoniga o'zgacha estetika bag'ishlagan. So'ngso'z o'rnida shuni ta'kidlash joizki, “Hasanxon” dostonida qo'llanilgan antroponimlarning ko'pchiligini, asosan, arab va fors-tojik tilidan o'zlashgan antroponimlar tashkil qiladi. Ular anglatgan ma'nolar ham turlicha. Ilmiy izlanishlarimiz va tadqiqotlarimiz mobaynida shu kabi o'zlashgan va o'z qatlamga kiruvchi nomlarni o'rganamiz hamda tahlilga tortamiz.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbek xalq dostoni / Aytuvchi Rahmatulla shoir Yusuf o‘g‘li; Tahrir hay’ati: O.Yunusov, A.Ahmedov, M.Jo‘rayev va boshqalar./ Rassom T.Sa’dulla. – t.: sharq, 2006. – 448 b.
2. Rustamjon O‘rinov “Ismlar haqida, egalik kelishigi, kelishik shakli, ismlarni kesimga xoslovchi shakllar” kitobi
3. Bekmuradov N. Chiroyli ismlar to‘plami. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2015. -524 b.
4. O.Ismatullayev. “Ism – farzand iqboli”. – Namangan.: ”Namangan” nashr., 2007.-123b
5. Eng chiroyli ismlar va ularning ma’nosi [matn]/tuzuvchi va nashrga tayyorlovchi N.Bekmuradov. – Toshkent” Yangi kitob, 2019. – 528 b